

---

## YaNGI O'ZBEKISTON YaNGI IMKONIYaTLAR DAVRI!

**Bugun Rishton tumani hokimi Sufhonjon Soliev va sektor rahbarlari ayni damda Rossiyada elektron savdo bilan shug'ullanuvchi yosh tadbirkor Abbosbek Mamaevni qabul qildi. Asli Rishton tumanida tug'ilgan Abbosbek Moskva va Sankt Peterburg shaharlarida faoliyat yuritadi. Uning yutub va telegramda biznes kanallari mavjud bo'lib, ushbu kanallar ancha mashhur sanaladi.**

Yosh tadbirkorning bugungi tashrifi - "Mingboshi keramik" kulolchilik klasterida boshlandi. U yerda Rishton kulolchilik mahsulotlari bilan tanishgan Abbosbek klaster rahbari Shokirjon Ahmadjonov bilan suhbatlashdi.

Tashrifning ikkinchi manzili - "R+Koron" xususiy korxonasiga qarashli uy muzeyiga bo'ldi. Yosh tadbirkor shuningdek, "Chinor+" turistik majmuasi va "Ruso'zbekteks" xorijiy korxonasi qoshida yangi qurilayotgan to'qmachilik fabrikasi bo'ldi.

Ertaga tuman hokimligida Abbosbek Mamaev va rishtonlik tadbirkorlar o'ttasida uchrashuv o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Ushbu uchrashuv tumanimiz tadbirkorlari uchun yangi imkoniyatlarni taqdim etishiga ishonamiz.

2023-02-07 13:43:48